



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

Жауапты редакторлар:
Шуһрат СИРОЖИДДИНОВ,

Филология ғылымдарының докторы, академик
Әлішер Науаи атындағы Ташкент мемлекеттік өзбек тілі мен
әдебиеті университетінің ректоры

Қанат БАЙБОЛОВ,

Жұмабек Ахметұлы Тәшенев атындағы университет ректоры,
техника ғылымдарының докторы, профессор

Боқижон Тохлиев (Өзбекстан), Нурбой Жабборов (Өзбекстан),
Парида Байнеева (Қазақстан), Кемал Явуз Атаман (Түркия), Яшар Қасым
(Әзербайжан), Ислам Джеменей (Қазақстан), Фарход Рахимий (Иран),
Шолпан Арзымбетова (Қазақстан), Каромат Муллахожаева (Өзбекстан),
Жанна Ботабаева (Қазақстан), Бахтиёр Файзуллаев (Тәжікстан),
Дильнавоз Юсупова (Өзбекстан), Нозлия Нормуродова (Өзбекстан), Шахло
Наралиева (Қазақстан), Илёс Исмаилов (Өзбекстан), Азизулла Арал
(Афгулхан), Орзігүл Хамроева (Өзбекстан), Озода Тожибаева (Өзбекстан)

Бұл жинақта «Әлішер Науаи және 21 ғасыр» тақырыбындағы 10-шы
халықаралық конференция материалдары жинақталған. Жинаққа Әлішер
Науаидың әдеби-ғылыми мұрасының классикалық әдебиетіміздегі орны
мен оның бүгінгі күндегі маңызы туралы, сонымен қатар, ақын
шығармашылығына қатысты мәтінтану және тіл білімінің мәселелеріне
арналған ғылыми мақалалар енгізілген. Науаитану ғылымының
маңыздылығын айқындайтын факторлардың бірі – осы саланың қазіргі
жағдайы мен келешегі туралы нақты пайымдаулар беруі. Кітап
филологтарға, ғылыми зерттеушілерге, магистранттар мен студенттерге,
жалпы оқырман қауымға арналған.

*Авторлардың көзқарастары мен шығармалардың атауларының
емлесі редакциялық тұрғыдан өзгеше болуы мүмкін.*

**Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek
Language and Literature**

**Republic of Kazakhstan Zhumabek
Tashenev University**

**The Proceedings of the International
Scientific-Theoretical Conference**

«ALISHER NAVO'I AND THE 21st CENTURY»

6 February 2025

Tashkent – Shymkent – 2025

Chief editor:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

Doctor of Philological Sciences, Professor,
Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of
Uzbek Language and Literature

Kanat BAYBOLOV

Doctor of Technical Sciences, Professor,
Rector of the University named after Tashenev Zhumabek Akhmetuly

Editorial Board:

Bakijon Tuxhliev (Uzbekistan), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Parida Bayneeva (Kazakhstan), Kemal Yavuz Ataman (Turkey), Yashar Qasim (Azerbaijan), Islam Jemeney (Kazakhstan), Farhod Rahimiy (Iran), Sholpan Arzimbetova (Kazakhstan), Karomat Mullakhojayeva (Uzbekistan), Janna Botabaeva (Kazakhstan), Bakhtiyor Fayzullayev (Tajikistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Shahlo Naraliev (Kazakhstan), Ilyos Ismoilov (Uzbekistan), Azizullah Aral (Afghanistan), Orzigul Hamroeva (Uzbekistan), Ozoda Tojiboeva (Uzbekistan)

These are the proceedings of articles submitted to the 10th International Scientific Theoretical Conference entitled "Alisher Navo'i and 21st Century". The digest comprises scholarly articles that critically examine the position and significance of Alisher Navo'i's literary and intellectual heritage within the framework of classical literature, emphasizing its enduring relevance in contemporary discourse. Furthermore, it presents rigorous analyses of textual studies and linguistic phenomena related to the poet's works, offering a comprehensive exploration of philological, historical, and methodological aspects. By addressing both current trends and future directions in Navo'i studies, this compilation serves as a significant academic resource for advancing research in the field.

The orthography of authors' and their interpretations of works may differ from the view point of editorial board.

1. Зулпукаров К.З., Амиралиев С.М., Караева Н.О. Алишер Навои и вопросы сопоставительного языкознания // Творческое наследие Алишера Навои и современность. – М., 2018. 52-56-с.
2. Махбуб ул-қулуб / А. Навоий. МАТ. Т. XIV. Тошкент: Фан, 1998.
3. Сабъаи Сайёр А. Навоий. МАТ. Т. X. Тошкент: Фан, 1992.
4. Муминова Дилафруз Воспитание учащихся на основе нравственных взглядов Алишера Навои. – №58-5, 24.01.2017. Педагогические науки. <https://novainfo.ru/article/10831>
5. Сирожиддинов Ш. Жизнь и творчество Алишера Навои, гуманистические идеи в его произведениях // INFOLIB Axborot-Kutubxona jurnali doi 10.47267/2181-8207/2022/1-106
6. <https://padlet.com/tunukasirova0/padlet-8grllwsm6vv7s4lp>
7. <https://app.writereader.com/class/253592/book/52e501c7-7dae-4785-b64b-563e0412aa00/view>
8. https://www.azattyk.org/a/Kyrgyzstan_Literature_Navoi/1953357.html

ALISHER NAVOIYNING DIDAKTIK QARASHLARI

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna

filologiya fanlari doktori, professor, Buxoro davlat universiteti
yuldasheva21dilorom@gmail.com

Naraliyeva Shahlo Djamalovna

Jumabek Tashenev nomli universitet katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) Qozog'iston, Chimkent
naraliyeva_s@mail.ru
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/XUGY5903

Annotatsiya: Insoniyatning shu kungacha bosib o'tgan murakkab rivojlanish yo'li ezgu maqsadlarga faqat uzluksiz ma'naviy tarbiya bilangina erishish mumkinligini isbotlab kelmoqda. Zero ta'lim, tarbiya, ma'naviyat – inson hayotining asosi, irodani, tafakkurni baquvvat qiladigan va vijdonni uyg'otadigan beqiyos kuch, barcha dunyoqarashning muhim mezonidir. Inson yer yuzida faqat va faqat ezgu ishlarni bajarishga intilishi uchun unga bolaligidanoq to'g'ri ta'lim-tarbiya berilishi zarur. Bu inson zotining nomini ulug'likka, martabasini yuksaklikka daxldor etuvchi poydevordir. Inchunin, bu Alisher Navoiy falsafasi, sharqona o'dob-axloq mezonidir.

Kalit so'zlar: Navoiyning didaktik qarashlari, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, bilim, malaka, ko'nikma, odat, tabiat

Abstract: The complex path of human development to this day proves that noble goals can only be achieved with continuous spiritual education. After all, education, upbringing, spirituality are the basis of human life, an incomparable force that strengthens the will, thinking and awakens conscience, an important criterion for all worldviews. In order for a person to strive to do only and only good deeds on earth, it is necessary to give him the right upbringing from childhood. This is the basis that makes the name of the human race great and its rank exalted. Inchunin, this is the philosophy of Alisher Navoi, the criterion of eastern morality.

Keywords: Didactic views of Navoi, education, training, spirituality, knowledge, competence, skill, habits, nature.

XXI asrning ikkinchi o'n yilligiga kelib hazrat mir Alisher Navoiy dahosiga to'la-to'kis baho berildi, desak, fikrimizcha, mubolag'a bo'lmaydi. Buyuk insonparvar, daho shoir, zukko faylasuf, zamon-u makonlar silsilasida ijodi va asarlari ko'proq qiymat hosil qiladigan (yozganlari, hazratning o'zi istaganidek, "avjdan quyi enmagan"), xalq ongida, milliy madaniyat, ma'naviyat tarixida butun davrni tashkil etgan shaxs, ulug' mutafakkir mir Alisher Navoiy – "agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir" [Karimov, 2008: 3].

Serqirra ijodkorning asarlari, mazkur asarlarda qo'llanilgan kalom-u iboralar, ulardagi shakl va mazmun libosining mutanosibligi, so'z bag'riga yashirilgan ma'rifat va ayni damda ma'no ostida qavatlangan ma'noning ochqichi bo'lgan lisoniy birliklar, tom ma'noda, XV asr hayotining haqiqiy ensiklopediyasi. Shu sababli fan hamda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida fikr marvaridlarini izlovchilar ulardan qimmatli va foydali maslahat-u tavsiyalar olishlari tabiiy. Buyuk mutafakkir asarlarida oilada farzandlarni tarbiyalash masalalariga va bu ezgu ishda ota-onalarning, ayniqsa, otaning vazifalariga alohida e'tibor qaratgan. Lirik qahramonning tug'ilishi va o'sishini tavsiflovchi barcha liro-epik asarlarda (Farhod, Qays/Majnun, Iskandar /buyuk Iskandar va b.) [Navoiy, 1986: 2] bolaning nutqi shakllanib, rivojlana boshlagan davrdanoq o'z avlodining kelajakda jamiyatlardagi o'rnini belgilash uchun ota zimmasiga, eng avvalo, farzandiga ta'lim-tarbiya beradigan yaxshi ustozni tanlash mas'uliyati tushadi.

Shoir bu borada pul va boshqa mablag'larni tejashga yo'l qo'yib bo'lmasligini bir necha bor ta'kidlaydi, zero, bilim har qanday boylikdan ham qadrliroq va ahamiyatlidir. Buni – yaxshi ustozni tanlash vazifasini – Farhodning otasi Xoqon, Qaysning otasi Omir va Iskandarning otasi Faylaqus bajaradilar [Navoiy, 1986: 2].

Qahramonlarni tayyorlash va tarbiyalash uch bosqichda uch yo'nalishda amalga oshiriladi:

1) savodxonlik, din, axloq va ilm asoslarini egallash (Ta'kidlash kerakki, Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida ham, "Saddi Iskandariy"da ham matematika, fizika, astronomiya, kosmogoniya, mineralogiya, konchilik, falsafa bo'yicha o'qitish va bilim olishning muhimligini alohida uqtiradi);

2) sport va harbiy o'yinlar, suzish va ot sporti kabilarni qunt bilan o'rganish;

3) hunarmandchilikning bir necha turlarini, muayyan kasb va san'atni mukammal egallash.

Ma'lumki, Navoiy didaktika bo'yicha maxsus risola yozmagan, ammo u deyarli barcha asarlarida ta'limning tavsifi bilan bog'liq holda bolani o'qitish, oilaning (ayniqsa, otaning) ta'lim bosqichlari bilan bog'liq vazifalari haqida batafsil yozadi. Jumladan, ijodkorning didaktik xarakterdagi asarlarida, dostonlaridagi adabiy qahramonlarni bolalik chog'ida tarbiyalash lavhalarida, shoir tasvirlagan ayrim voqealar haqidagi xulosalarida, shuningdek, personajlar to'g'risida fikr yuritishda uchratish mumkin. Masalan, "Farhod va Shirin" dostonida Farhod ariq qazuvchilarning mashaqqatli ishlarini ko'rib, zahmat chekayotganlarning shikoyatlarini eshitib, ularga rahmi keladi va shunday mulohaza qiladi:

Hunarni asrabon netkumdur oxir,

Olib tuproqqam-u ketkumdur oxir [Navoiy, 1986: 2].

Ushbu mulohazani bilimlarni majburiy ravishda amaliy qo'llash didaktik prinsipining aksi sifatida qarash kerak. Agar biz Alisher Navoiyning didaktik

prinsiplarini birma-bir jamlasak, unda ta'limning quyidagi bosqichlari/etaplariga-buyuk shoir ta'kidlagan bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etish jarayoniga – alohida e'tibor qaratilganligini kuzatishimiz mumkin:

1. Savodxonlikni, ritorikani, fan asoslarini o'rgatish, ya'ni bu – ilk bosqich: bilimlarni egallash. Bu yerda shoir didaktikaning ikkita ichki bosqichini ajratib ko'rsatgan: a) bilimlarni o'rganish/egallash va b) o'zlashtirish/tushunish (anglash, uqish) [Yuldasheva, 2000: 4].

Ijodkor birinchi bosqichni *o'qimoq* (читать, обучаться), *o'rganmoq* (научиться); ikkinchi bosqichni esa, *uqmoq* (tushunish, bilish, anglash – понимать, уразуметь, осмыслить) kabi gradual xarakterdagi so'zlar bilan ifodalaydi. "Farhod va Shirin" dostonida Farhodning tayyorgarligini, uning qobiliyatlarini tavsiflovchi o'rinlarda quyidagilarni yozadi:

O'qub o'tmak, uqub o'tmak shiori,

Qolib yodida sahfa-sahfa bori [Navoiy, 1986: 2].

Bilimni egallash bosqichi(bolani o'rgatish)ni shoir insonparvarlikning dastlabki belgisi deb hisoblaydi. Bu dunyoda yashash va bilimga ega bo'lmaslik, johil bo'lib qolish uchun u hammomga kirib, lekin yuvinmasdan ketishi bilan taqqoslanadi va shunday yozadi:

Kelib olamga-yu beilm o'tmoq,

Kirib hammomga-yu nopok chiqmoq [Navoiy, 1986: 2].

Navoiy bilimlarni o'zlashtirishning ushbu ikki bosqichi – bolaga ta'lim berish – bilimli shaxsni shakllantirishning boshlang'ich bosqichi deb biladi. Bolaga ta'lim berish, yaxshi o'qituvchilarni tanlash oilaning asosiy vazifalaridan biri, aniqrog'i, oila boshlig'i bo'lmish otaning zimmasidagi mas'uliyatdir. Yuqoridagi qahramonlarining otalari misolida u ta'lim olishga ehtiyojmand farzandiga g'amxo'r, o'qimishli ota-onaning yorqin timsolini keltiradiki, bu yer yuzida (irqi, millati, elati yoki yashash o'rnidan qat'i nazar) inson zoti bor ekan, albatta, farzandlarining ta'lim olishini ta'minlashga mas'ul demakdir. Hazrat mir Alisher Navoiy mazkur fikrlari orqali nafaqat o'z eliga, xalqiga, balki bani basharga murojaat etadi. Zero, hazratning umumbashariyat shoiri darajasiga ko'tarilishi ham bejiz emas.

2. Shoir keyingi bosqichni bilimlarni amalda qo'llash (ilmi amal) deb biladi. Buni shoir Faxriddin Roziy va Xorazmshoh o'rtasidagi suhbatga bag'ishlangan "Hayrat-ul abror" dostonining 43-qismida shunday yozadi:

Ilm, Navoiy senga maqsud bil,

Emdiki, ilm o'ldi, amal ayilagil [Navoiy, 1986: 2].

Navoiy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikma va malakalariga katta ahamiyat beradi. O'z bilimlarini amalda qo'llay olmaydigan yoki qo'llashni istamagan olimni" ustiga kitob yuklangan hayvon", "yomg'irsiz bulut" – umuman, tirik jonzotga foydasiz va samarasiz bo'lgan hamma narsaga o'xshatadi. Uning barcha dostonlarida, tahrirlarida har doim ilm-fan, o'rganish va bilim olish haqida gap ketganda (va buyuk shoir deyarli barcha asarlarida shu haqda yozadi), bilimning foydalilik mezonlari uning pragmatizmi – ushbu bilimlarni amalda qo'llash bilangina ahamiyatli ekanligini takror-takror uqtiradiki, bumir Alisher Navoiyning didaktikada eng katta pragmatistligini ko'rsatadi.

3. Bilimlarni amalda qo'llash, shoirning fikricha, inson xulq-atvorida doimiy, kundalik odatga aylangan bo'lishi kerak. Shoir bu bosqichni odat deb nomlaydiki, bu

soʻzni, yaʼni *odat*ni oʻrganib qolish, tez-tez takrorlash (привычка, обыкновение, обычай) shaklida tushunish zarur. Bizningcha, zamonaviy didaktika terminologiyasiga koʻra – olingan bilimlarni amalda doimiy qoʻllash; avtomatlashtirilgan; yarim ongli xatti-harakatlar mohiyatan odat boʻladi. “Nazmul Javohir”da shoir shu bilan bogʻliq quyidagi baytni keltiradi:

Gar yaxshi amal kishiga odat bulgʻay,
Umri bu amal birla ziyodat bulgʻay [Navoiy, 1988: 1].

Ayrim hollarda, masalan, “Favoyidul kibar”da shoir *sheva* soʻzini ham xuddi shu odat maʼnosida qoʻllaganligini kuzatish mumkin:

Jurumsiz yor agar oʻlturdi, Navoiy farah etmish:
Husn hayliga budur *sheva*-yu, ishq ahligʻa *odat* [Navoiy, 1988: 1].

4. Bilimni doimiy (takror-takror) amaliy qoʻllash, bu masalada avtomatizm, Navoiyning fikriga koʻra, odamda tabiiylik, ontologiya, maʼlum jihatdagi ichki xususiyat (ong osti) – odatlarning tabiatga, xarakterga oʻtishiga olib keladi. Shoir bu bosqichni *tabiat* – xarakter (природа; характер, нрав) deb yozadi:

Tabiatga har nekim odat erur,
Chu eskirdi odat tabiat erur [Navoiy, 1986: 2].

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, buyuk shoir va mutafakkir bilimlarni oʻzlashtirishda quyidagi oʻsib boruvchi (gradual) bosqichlarni ajratib beradi: *oqish* → *uqish* → *amal* → *odat* → *tabiat* [Yoʻldosheva, 2019: 5].

Shoir dastlabki ikki bosqichda oilaga (asosan, otaga) katta masʼuliyat yuklanishini taʼkidlagan boʻlsa, keying uch bosqichda taʼlim oluvchidan ilmi amal talab etilishini uqtiradi. Agar biz shoirning ushbu besh bosqichli boʻlinishini zamonaviy didaktika – bilim~koʻnikma~malaka uchligi bilan taqqoslasak, unda buyuk shoir va mutafakkirning bosqichma-bosqich tasnifi zamonaviy tasnifga qaraganda mukammalroq ekanligi va shuning uchun ham alohida ahamiyatga egaligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Ijtimoiy hayotning inson zoti bilan bogʻliq koʻp-koʻp jihatlarini tiyrak koʻz bilan koʻra olgan, dunyoni teran tafakkuri bilan ilgʻagan, hayotning har bir soʻqmogʻi qaysi manzilga olib borishini koʻra oladigan va buni avlodlarga oʻgit qilib yozib qoldirgan daho zotlar jahon tarixida sanoqli. Shu sanoqlilar roʻyxatining boshida mir Alisher Navoiy turibdi, degan fikr aksiomadir. U ishq-muhabbatni, mehr-u vafo, iffat, sharm-u hayo va nazokatni, oliyjanob insoniy fazilatlar-u ulugʻ tuygʻularni yonib kuylash bilan birga hech bir makon va zamon inkor eta olmaydigan fanga, taʼlim-tarbiyaga oid fikrlarni, ilmiy xulosalarni ham yozib qoldirdi. Shu boisdan ham butun dunyo Navoiy dahosiga intiladi. Qisqa qilib aytganda, mir Alisher Navoiyning ijodiy merosi har bir soha vakili oʻziga zarur jihatni topa oladigan bebaho xazinadir, desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий А. Қора кўзим.–Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
2. Навоий А. Хамса: «Ҳайратул-аброр» ва бошқ.–Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008.– Б.47.
4. Yuldasheva D.N. Navoiy – non/ Башарият маънавий юксалиши ва ёшлар тарбиясида Алишер Навоий меросининг аҳамияти. –Buxoro, 2020. – B. 365-369.
5. Yoʻldosheva D.N. Ona tili taʼlimi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti.– Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. – 168 b.

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	596
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	598
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	601
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	604
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	607
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	609
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	613
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	615
MUNDARIJA	618

Ilmiy nashr

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga 01. 02. 2025-yilda ruxsat etildi
Bichimi 21,0x29,7. Ofset qog'ozi. "Cambria
garniturası. Hisob-nashr tabog'i 37,5 b.t.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 30.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.
+998 (94) 673-66-56, +998 (97) 017-01-01

